

“ILMIY TAFAKKUR VA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY KONFERENSIYASI
Qabul qilindi: 24-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 29-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 05-oktabr 2026-yil

TIL TA’LIMIDA METODLARNING KONSEPTUAL TASNIFI VA NAZARIY-METODOLOGIK QARASHLAR

Axmadjonova Nigina Jamshid qizi
+998910021151
nigishaaxmadjonova@gmail.com

Kalit so‘zlar: birinchi til, ikkinchi til, kommunikativ kontekst, lingvistik bilim, tilga yo‘naltirilgan metodlar, o‘quvchilarga yo‘naltirilgan metodlar, o‘rganishga yo‘naltirilgan metodlar, audiolingual metod, kommunikativ (suhbat) metod, jamoaviy til o‘rganish metodi, bevosita (Direct) metodi, grammatik tarjima metodi, tabiiy yondashuv metodi, og‘zaki yondashuv metodi, silent (jimlik) metodi, situatsional til o‘rgatish metodi, taklif metodi (Suggestopedia) va umumiy jismoniy javob metodi.

London universitetining til o‘qitish bo‘yicha taniqli professori, “Til o‘rgatish tahlili” nomli mashhur kitobi muallifi Uilyam Makey metod so‘zi *“juda kam va juda ko‘p”* degan ma’noni bildiradi, deb ko‘p bora ta’kidlagan [1]. Olim fikrining isboti tariqasida shuni aytadiki, *“Buni aniqlash mushkul emas. U birgina bizning jamiyki til va til o‘rganish borasidagi bilimlarimiz mazmunida yotibgina qolmay, tarixda aytilgan, amalga oshirilgan va o‘ylangan narsalarga befarqlikda ham o‘z mazmunini aks ettiradi. Shaxsiy manfaatlarga bog‘liq holda o‘zgartirilgan metod (usul) mazmunida yotadi.[2]”* Qariyb qirq yil oldin Makey tomonidan aytilgan ushbu so‘zlar ma’nosi bugungi kunga ham to‘g‘ri keladi.

Bilamizki, til bilan bog‘liq kasblarda metod atamasi shu qadar ko‘p va tez-tez qo‘llanadiki, bu so‘zning ma’nosi aksariyat kishilar ongida tanish tushuncha sifatida saqlanib qolgan. Hozirgi vaqtda esa ikkinchi til va chet tilini o‘qitishga oid adabiyotlarda qo‘llanayotgan metodlar soni ma’lum emas. Masalan, 60-yillarning o‘rtalarida nashr etilgan

bir kitobda dunyoning turli burchaklarida hali ham u yoki bu shaklda qo‘llanadigan 15 ta eng keng tarqalgan metodlarning ro‘yxati keltirilgan [3]. Keyinchalik, 80-yillarning o‘rtalarida nashr etilgan ikkita kitob – *Larsen Freeman[4]* hamda *Richards va Rodjers [5]* – Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi metod darslari uchun belgilangan kitoblar orasida eng yuqori ikkita o‘rinni egallab kelishmoqda. Mazkur kitoblar hozirda qo‘llanayotgan 11 ta turli metodlarni taqdim etadi: *audiolingual metod, kommunikativ (suhbat) metod, Jamoaviy til o‘rganish metodi, Bevosita (Direct) metodi, Grammatik tarjima metodi, Tabiiy yondashuv metodi, Og‘zaki yondashuv metodi, Silent (jimlik) metodi, Situatsional til o‘rgatish metodi, Taklif metodi (Suggestopedia) va Umumiy jismoniy javob metodi.*

Ushbu 11 ta metod til o‘rgatishning 11 xil yo‘llarini taqdim etadi, deb taxmin qilish, albatta, noto‘g‘ri. Olimlar til tizimi anchagina murakkab va bizning tushuntirish kuchimizni ta’minlash uchun yetarlicha qiyin, ushbu metodlar esa o‘quvchiga tilni ular tushunadigan va o‘zlashtira oladigan tarzda tushuntiradi, deb hisoblashadi. O‘quvchiga yo‘naltirilgan metodlar til o‘rganuvchilarni grammatik jihatdan chiniqtirishga va kommunikativ jihatdan nutqlari ravon bo‘lishiga qaratilgan. Ular o‘quvchining ijtimoiy muloqot va akademik bilimlarini rivojlantirish bilan bir qatorda real hayotda tildan foydalana olishlarini hisobga oladi va kommunikativ kontekst uchun zarur lingvistik bilimlarni taqdim qiladi. Biroq Uilga Rivers ta’kidlab o‘tganidek, yuqoridagi 11 metodlarning o‘xshash tomonlari ko‘p bo‘lib, ularni tahlil qilish jarayonida mana shu umumiy xususiyatlari nuqtayi nazaridan klasterlash foydalidir. Bunday usullardan biri ularni *(a) tilga yo‘naltirilgan metodlar*, *(b) o‘quvchilarga yo‘naltirilgan metodlar* va *(c) o‘rganishga yo‘naltirilgan metodlar* sifatida tasniflashdir.

Tilga yo‘naltirilgan metodlar, asosan, lingvistik shakllar, grammatik strukturalar bilan bog‘liq bo‘lgan metodlar jamlanmasidir. Bu metodlar til o‘rganuvchilarga darsda muayyan bir qolipga asoslangan mashqlar orqali til o‘zlashtirishni maqsad qiladi. Mazkur metod negizida tilni ketma-ket lingvistik strukturalarni o‘rganib borish orqali egallash yotadi, ya’ni grammatik strukturalar bilan mashg‘ul bo‘lish oxir-oqibat maqsad qilingan tilni o‘zlashtirishga olib keladi. Agar til o‘rganuvchilar sinfdan tashqarida shu tilda muloqot qilishni xohlashsa, o‘rganilgan grammatik strukturalardan, qoliplardan foydalana oladilar, deb taxmin qilinadi. Metodologlarning bu taxminidan shu to‘xtamga kelinadiki, til

o‘zlashtirish va uning taraqqiyoti tasodifiy hodisa emas, u katta yoshdagi insonlarning T2 ni o‘rganish holatida bo‘lgani singari ongli ravishda (sun’iy muhitda) gina sodir bo‘ladi, yosh bolalarning T1 ni egallashidagi kabi ongosti jarayonlar orqali emas.

Tilga yo‘naltirilgan metodlarni amaliyotga qo‘llashda grammatik qoidalar, strukturalar, lug‘atlar to‘plami o‘rganuvchining potensial qo‘llay olishini hisobga olgan holda ehtiyotkorlik bilan tanlanadi va ular quyi darajadan murakkab darajaga tomon pog‘onama-pog‘ona taqsimlanadi. O‘qituvchining vazifasi ularni birma-bir tanishtirish va o‘quvchi o‘zlashtirgunga qadar amalda qo‘llashga yordam berishdir. Bunda o‘qituvchilardan o‘quvchi uchun murakkab bo‘lgan grammatik nazariyalarni ular tushunadigan va o‘zlashtira oladigan tarzda tushuntirishlari talab etiladi.

O‘quvchiga yo‘naltirilgan metodlar – bu, asosan, tildan foydalanish, o‘quvchilarning kommunikativ ehtiyojlari bilan bog‘liq metodlar jamlanmasi. Bu metodlar til o‘rganuvchilarning nafaqat ijtimoiy muloqot, balki akademik ta’limda ham real hayotdagi tildan foydalanishini hisobga oladi va kommunikativ kontekst uchun zarur bo‘lgan lingvistik strukturalarni taqdim qiladi. Tilga yo‘naltirilgan metodlarda bo‘lgani kabi bu metodlarda ham til o‘zlashtirish va uning rivojlanishiga tasodifiy emas, qasddan paydo bo‘ladigan jarayon sifatida qaraladi. Asosiy farq shundaki, tilga yo‘naltirilgan metodlar o‘rganuvchilarga faqat lingvistik strukturalarni taqdim etish va tushuntirish orqali til o‘zlashtirish mumkinligini ifodalasa, o‘quvchiga yo‘naltirilgan metodlar kommunikativ funksiyalarni bir nechta lingvistik til shakllari bilan moslashtirish va tizimli ravishda tushuntirishni nazarda tutadi.

O‘rganishga yo‘naltirilgan metodlar ta’lim jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan metodlardir. Mazkur metod o‘quvchilarning o‘zaro interaktivligi asosida hosil bo‘lib, darsda o‘quvchilarga kommunikativ mashg‘ulotlar (suhbat, bahs-munozara, keys) ni tashkil etish orqali til o‘zlashtirish maqsad qilinadi, ya’ni bunday yondashuvda o‘quvchilar tilni muloqot jarayonida o‘rganishlari mumkin. Qolgan ikki metoddan farqli o‘laroq, bu metod tasodifiy muhitda sodir bo‘ladi.

O‘rganishga yo‘naltirilgan metodlarga ko‘ra, tilni rivojlantirish uchun asosiy e’tibor oldindan tanlangan, tizimli grammatik struktura va formulalarga emas, balki darsda

o‘quvchilarning mazmunli faoliyat bilan shug‘ullanishi uchun sharoit yaratishga qaratilishi lozim. *“Til o‘rgatishdagi yondashuvlar o‘zgarib borar ekan, o‘qituvchi ko‘chuvchan qumlar ostida qandaydir tog‘ jinslari borligiga amin bo‘lishi kerak, ya’ni qachonki shu ko‘chuvchan qumlar tuproq ostidagi tog‘ jinslariga (go‘yoki dengiz masxaraboz balig‘i singari) mustahkam o‘rnashsagina o‘qituvchi har qanday to‘lqin ritmiga hech qanday jarohatsiz chayqala oladi [6]”* O‘qituvchilar ta’lim jarayonida yangi jonli yondashuvlarni saqlab qolish uchun yangi fikrlar va metodlarni rag‘batlantirishlari lozim. Ammo samarali til tajribasi uchun asos bo‘la oladigan til o‘rganish va o‘qitishning turg‘un nazariyalarini o‘zlashtirmasdan bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Shunday ekan, o‘qituvchining vazifasi samarali til o‘rganish mumkin bo‘lgan muhitni yaratishdir. Ushbu muhit o‘qituvchiga oqilona tajriba o‘tkazish, o‘z shogirdlari uchun nima foydali va nima samarasizligini amalda kuzatish imkoniyatini beradi. Yuqorida ta’kidlangan turg‘un nazariyalar esa ana shu muhitda o‘zlashtiriladi. Ya’ni: *“Biz o‘rgatganimizda o‘rganamiz. O‘qituvchi o‘quvchi, o‘quvchi esa o‘qituvchidir”. Qadimgi bir maqol bilan aytganda, “O‘rganish qari odam uchun, o‘rgatish esa undan ham keksa odam uchundir”[7].*

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, til ta’limida metodlarni faqat o‘qitish usuli sifatida emas, balki til tuzilishi, o‘qituvchi faoliyati va o‘quvchining idrok etish imkoniyatlari chorrahasidagi kompleks tizim sifatida talqin etish lozim. Shuningdek, an’anaviy o‘qituvchiga va til tizimiga yo‘naltirilgan yondashuvlardan bosqichma-bosqich o‘quvchi shaxsini va uning kommunikativ ehtiyojlarini markazga qo‘yuvchi metodlarga o‘tish zamonaviy til ta’limining bosh tamoyiliga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Larsen-Freeman, D. (1986). Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford: Oxford University Press.

2. Mackey, W. F. (1965). Language Teaching Analysis. Bloomington: Indiana University Press, p. 151.

3. Piaget’s theory of cognitive development // Wikipedia. – URL: https://en.m.wikipedia.org/wiki/Piaget%27s_

4. Richards, J. C. and T. Rodgers (1986). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press.

5. Rivers, W. M. (1992). “Ten principles of interactive language learning and teaching,” in W. M. Rivers (ed.). Teaching Languages in College: Curriculum and Content. Lincolnwood: NTC, p. 373.

6. Rivers, W. M. (1997). “Interactive language teaching”. Article from edevaluator.org.

7. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.

8. Wood D J., Bruner J.S., & Ross G. (1976). The Role of Tutoring in Problem Solving. Journal of Child Psychology and Psychiatry, 17(2), 89–100.

